

## OILAVIY TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OILA HAMDA – JAMOATCHILIKNING HAMKORLIGI

*Ergasheva Shoira To'lkinozna*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus  
pedagogika 2-bosqich (Defektologiya) talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada bolalarning tarbiyaviy muhitini samaradorligini oshirish hamda oila va jamoatchilik hamkorligining ustun jihatlari, natijalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sog'lom muhit, tarbiyaviy muhit, MTT, maktab, konstitutsiya, oila kodeksi, jumhuriyat.

Mamlakatimizda bolalar va onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. "Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga" shiori yanada baralla jaranglashda davom etmoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. Jumladan, bizning davlatimiz oilalar sharoitini yaxshilash, ularni moddiy jihatdan ta'minlashni kuchaytirish yuzasidan g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Davlat va jamoatchilik bolalarni tarbiyalashda davlat tasarrufidagi MTTlar, xususiy sektordagi MTTlar, davlat va nodavlat maktablar, maktab-internatlar va boshqa shunga o'xshash ta'lim muassasalar tarmoqlarini kengaytirish orqali oilalarga har tomonlama yordam bermoqda. Aholi yashaydigan uy-joy binolari, maktablar, bolalar va tibbiyot muassasalari qurish, ularni rekonstuksiya qilish muntazam ravishda amalga oshirib borilmoqda.

Mamlakatimizda oilani qo'llab-quvvatlash uzoq yillardan buyon davom etib kelmoqda. Buning isboti sifatida:

- 1998 yil – "Oila yili"
- 1999 yil – "Ayollar yili"
- 2000 yil – "Sog'lom avlod yili"
- 2001 yil – "Ona va bola yili"
- 2002 yil – "Qariyalarni qadrlash yili"
- 2005 yil – "Sihat-salomatlik yili"
- 2008 yil – "Yoshlar yili"
- 2010 yil – "Barkamol avlod yili"
- 2012 yil – "Mustahkam oila yili"
- 2013 yil – "Obod turmush yili"
- 2014 yil – "Sog'lom bola yili"
- 2015 yil – "Keksalarni e'zozlash yili"
- 2016 yil – "Sog'lom bola – sog'lom ona yili"

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** – oila huquqining asosiy manbaidir.

**77 – modda:** - Ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lif olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lif olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.

**Oila kodeksi** – oila huquqining manbalaridan biridir.

Oila kodeksining maqsadi – nikoh va oila munosabatlarini tartibga solish, oila a'zolari manfaatlarini himoya qilishdir.

Respublikamizda oilalarga, shu jumladan onalarga qulaylik tug'dirish, ularning moddiy sharoitlarini yaxshilash, bola tarbiyasi bilan jiddiyroq shug'ullanishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Masalan: maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va undagi moddiy sharoitni yaxshilash. Shuningdek, bola tug'ilganda beriladigan suyunchi pullari miqdorini yildan-yilga oshirib borish, 2 va undan ortiq 12 yoshgacha bolasiga bo'lgan onalarning mehnat ta'tillarini uzaytirish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ishlaydigan xotin-qizlarga bola tug'ilgandan 2 yoshga to'lgunga qadar homiladorlik ta'tili va bola 3 yoshga kirgunga qadar moddiy ta'minotsiz ta'til joriy qilinishi, bunda onaning mutaxassisligi bo'yicha ish faoliyati saqlanishi, yolg'iz onalarga har bir bolasiga uchun beriladigan oylik nafaqa puli miqdorining oshirilishi, ota-onalarning bolalari bilan birgalikda hordiq olishlari va davolanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi, kam ta'minlangan, nogironligi bor farzandlari bo'lgan oilalarga oziq-ovqat bilan birga kiyim-kechaklar bilan ta'minlanishi, shuningdek bolasini o'zi tarbiyalab, shu bilan birga ishlamoqchi bo'lgan onalarga to'liq bo'limgan ish kuni, ish haftasi, uyda ishlashlari uchun sharoit yaratilishi, bolalar kasallanganda uni parvarishlash uchun pul to'lanadigan vaqtning uzaytirilishi shular jumlasidadir.

Jumhuriyatimiz rahbariyati oilani mustahkamlash, uning sharoitini yaxshilash, kishilarning turmush farovonligini oshirishga hamda ayollarning bilim olishiga juda kata ahamiyat bermoqda. Oilaning mustahkamligi bolalarni har tomonlama to'g'ri ta'lif-tarbiya olishiga imkon beradi. Oila, MTT, muktab, mehnat jamoalari o'rtasidagi aloqani yaxshilash, ota-onalarning bolalar tarbiyasi uchun mas'uliyat va javobgarligini oshirish davr talabidir.

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onalarning tayanchi shu bilan birga jamiyatning hayotbaxsh kuchi hamdir. Bolalarning sharofati bilan hayot yanada shirin, o'lim esa u qadar dahshat solmaydigandek tuyiladi, - degan edi ingliz filosofi Frencis Bekon.

Farzand umr mevasi, tarbiyalı farzand esa oila faxri, porloq kelajagi va baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatlı ish bo'lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalarga erishavermaydilar.

Bola hayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifasidir.

Oila – jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota-onalar bolalarning birinchi o'qituvchi va tarbiyachisidirlar. Zotan bolalarning oilaviy odob-ahloq qoidalari, salomlashish, shirinso'zlik, sizlab gapirish, kattalarni hurmat, kichiklarga izzat va shafqat qilish, insonning qadr-qimmatini shakllantirish, o'ziga yaqin kishilarga mehribonlik ko'rsatish hislatlarini o'rgatish, singdirish, shu bilan birga faoliyatda qatnashish jarayonida har xil milliy urf-odat, an'analarga mos ravishda tarbiyalash asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, oilaning asosiy vazifalari:

- oilada boshqa joyda shakllanib bo'lmaydigan fazilatlar shakllanadi;
- an'analar davomiyligini ta'minlaydi; shaxsning
- ijtimoiylashuvini amalga oshiradi;
- jamiyat a'zolari oilani tashkil etadi;
- oila qanday bo'lsa jamiyat ham shunday bo'ladi;
- oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri fuqaro, vatanparvar, bo'lajak oila boshlig'i, jamiyatning qonunlariga bo'yso'nuvchi a'zosini tarbiyalash;
- kasb tanlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, ahloqan pok, ma'naviy dunyosi yetuk oila deganda, biz katta va kichiklarning o'zaro hurmati, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari, bir-birlariga izzat va hurmatini tushunamiz. O'zbek xalqimizda "Yomonlikka qarshi kurash bo'lмаган joyda yaxshilik kurtak yozmaydi", - degan ma'noli gap bor. Ushbu jumlaning tub zamiri yoshlar tarbiyasiga taalluqlidir. Ayrim yoshlarda ko'rindigan ahloqiy nuqsonlarni yo'qotish, tarbiyalash ularda ma'naviy go'zallik hosil qilish uchun quint va qat'iyat bilan kurashmoq zarur. Bu muhim vazifani bajarish MTT, maktab va oilaning burchi bo'libgina qolmay, balki keng jamoatchilikning ham asosiy vazifasi bo'lмog'i lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. Hasanboyeva, D.Xoliquov, Rocc Kemibell, Sh.K.Toshpo'latova, M.Sh.Nurmatova, X.J.Jabborova, N.Jamilova va boshqalar "Oila pedagogikasi" darsligi T., "Aloqachi" 2007
2. V.M.Karimova "Oila psixologiyasi". Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T., "Fan va texnologiya" 2008

#### INTERNET MANBALARI:

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)